

# Institut reytingini ko'tarish — barchaga daxldor!

ILM OLMOQQA INTILISH – HAR BIR MUSLIM VA MUSLIMA UCHUN FARZDIR



Kun hikmati:  
Hayotning har bir  
kunini mazmuni  
o'tkazishga hara-  
kat qiling. Zero,  
o'tgan kunlар hech  
qachon qaytmay-  
di. Ammo, ulardan  
yaxshi xotiralar  
goldirish mumkin!

# Ziyo chashmasi

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI GAZETASI

26.02.2019 № 2 (269)

ISSN-2010-9393

ziyo-chashmasi@umail.uz

1993-yil 21-martdan chiqa boshlagan

Alisher Navoiy tavalludiga  
578 yil to'ldi



## She'riyat sultoni

"Alisher Navoiy ustozlari Nizomiy, Dehlaviy, Jomiyalar singari forsiy tilda ijod qilmay, turkiy tilni ma'qul ko'rgan ekan. Nima uchun shunday bo'lgan?" — bir tanishim menga shu savolni berdi. O'zimcha mulohaza qilib, fikrlarimni aytdim: "Navoiygacha bo'lgan davrdagi barcha Xamsa asarlari fors-tojik tilida yaratilgan edi. Ushbu tilni hamma mukammal bilavermas, Xamsaning tub mohiyatini tushunmas edi. Mana shuning uchun ham Navoiy turkiy xalqlar, hatto, oddiy dehqon ham Xamsaning mohiyatini ang'lاب yetsin, deb turkiy tilda ijod qilganlar".

Manbalarda yozilishicha, forsiy tilda ijod qilgan shoirlar turkiy tilning qanchalik go'zal va betakror ekanligini bishishmagan. Kunlardan bir kun Navoiy forsi-tojik tilida ijod qiluvchi shoirlar bilan bir davrada o'tirganida, fors-tojik tilida bitilgan g'azallar o'qilgan. Navoiy esa turkiy tilda bitilgan bir g'azalni o'qiganida, fors shoirlaridan biri: "Hazrat, axir, shunday go'zal forsiy til turganda, turkiya ehtiyojingiz nadur?", — debdi. Navoiy ul zotga: "Ey hazrat, forsiy tildagi birgina "do'st" so'zining turkiy tilda bir necha ma'nodoshlari bor. Bundan tashqari, g'azallarning asosiy g'oyasi bo'lgan "ishq" so'zining "sevgi", "muhabbat", "oshiqlik" degan ma'nolari mavjud. Turkiy til ana shu jihatli bilan forsiy tildan afzalroqdir", — debdi. Bu so'zlarni eshitgan shoirlar Navoiyga tasannollar aytishibdi.

Shuning o'zi ham Navoiyning yuksak so'z zargari ekanidan nishonadir. Biz, yoshlar, Navoiydek daho insонning avlodini ekanligimizdan faxrланishimiz va Navoiy ijodida ochilmagan qirralarni ochishimiz kerak.

Dilroz MO'MINA,  
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti  
talabasi.

## Buyuk mutafakkirga ehtirom

Axborot-resurs markazining majlislar zalida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 578 yilligi munosabati bilan "Alisher Navoiy — buyuk mutafakkir va davlat arbobi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Jizzax viloyat bo'limi, Jizzax harbiy garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi, institut axborot-resurs markazi xodimlari va viloyat OAV xodimlari, viloyat musiqali drama teatri vakillari ishtirok etdi.

— "Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri A. Navoiy adapt ahliga rahnamo va homiylik qilib kelganligi bilan o'rta asr

o'zbek va fors-tojik adabiyotida, madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan", — deydi viloyat hokimi-mining yoshlar siyosati, ijtimoiy ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinosari B. To'xtamishev.

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi, dots. U. Qosimov ma'ruzasi tinglandi.

Tadbir so'ngida Jizzax harbiy garnizoni kursantlari va viloyat musiqali drama teatri vakillari mavzuga doir adabiy-musiqiy chiqishlarini namoyish etdi.

Rasul NORMAMATOV,  
Sherxon PIRIMOV,  
"Ziyo chashmasi" jamoatchi  
muxbirlari.

Bobur Mirzo tavalludiga  
536 yil to'ldi



## Bobur yodi

Andijonning firdavs bog'lariga rashkim keldi, Ko'zlarimda sog'inch iltisos, ashkim keldi. Moziylarga olib ketmoq uchun ko'shkimi keldi, Bu on xayollarim band ayladi, Bobur yodi.

Shavkatli Boburiy sulolaga asos solgan, Yomonlikdan hamki, ro'shnolikka qasos olgan. Hanuzki, ko'zlar sog'inchlarga to'lib tolgan, Bu on xayollarim band ayladi Bobur yodi.

Hindlar ham uning dilbar shaxsligin aytdi, Asrlarga qiziqish tutgan bahsligin aytdi, Olis ketgan qalbim yana o'ziga qaytdi, Bu on xayollarim band ayladi Bobur yodi.

Tojmahal ko'runga g'oyibdan razm ayladim, Yana faxr hissin tuymoqqa jazm ayladim. Nusgoni ketmagan havasla nazm ayladim. Bu on xayollarim band ayladi Bobur yodi.

Maqsuda TOLISOVA,  
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

● "Ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" mavzusida Jizzax davlat pedagogika instituti akademik litseyida davra suhbat bo'lib o'tdi.

● So'z mulkinining sultoni Alisher Navoiy tavalludi 578 yilligiga Boshlang'ich ta'lim fakultetini birinchi bosqich talabalari Jizzax shahridagi 29-sonli Mehribonlik uyi bilan hamkorlikda "Alisher Navoiy asarlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni" mavzusida davra suhbat bo'tkazishdi.

● Yunus Rajabiy musiqali drama teatrda Chet tillar fakultetining talabalari Chingiz Aytmatovning 90 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Chingizxonning oq buluti" nomli sahnalaشتirilgan teatr tomoshasida qatnashishdi.

● Madaniyat saroyida buyuk adib Abdulla Qodiriyning 125 yilligi munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi.



524 nafr professor-o'qituvchi, 7561 nafr talaba, 102 nafr magistr — hammasi bitta kassadan, deyarli bir vaqtida pul olishadi. Jami 8187 kishi. Bulardan, aytaylik, 5000 nafrni kassada ikki soat navbat kutub qolsa. Qancha vaqt "isrof" bo'лади? 10000 soat! Xo'p, kun bo'yicha hisoblasakchi? 416 kun!! Yilga aylantirsak, taqriban, 1 yil-u, 2 oy!!! Bu bir oyda olinadigan stipendiya, oylik maosh olishdagi vaqt "isrofi". Bir yilni hisoblasakchi? 14 yil...!

### HURMATLI MAS'ULLAR!

Balki, kassadagi "mekanizm"ni gayta ko'rib chiqish kerakdir. Bir yilda "14 yilimiz" havoga uchsa...

P/S: Bu taxminiy hisob-kitob. Aslida, "vaqt isrofi" bundan kam yoki ko'p bo'lishi ham mumkin. Muhimmi, tizimda kamchilik ko'rinish turibdi.

"Ochiq muloqot"lar davom etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Oliy va oshirishni ta'minlash maqsadida o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 6-fevraldag'i № 87-02-202 sonli topshiriq xatida "Yoshlarga o'shirishni ta'minlash maqsadida oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 5-band", Yoshlarga oid davlat siyosati ijrosini ta'lim muassasalarida samarali amalga

professor-o'qituvchilar, talabalar o'quvchilar ishtirokida fakultetlar kesimida "Ochiq muloqot" davra suhbatlari bo'lib o'tmoqda.

Ta'lim sifati, o'qituvchi va talaba o'rta shuning yuksakligi bilan qiyab kelayotgan muammolar, korrupsiya "Ochiq muloqot"da kun

## Tabriklaymiz!



Farrux PARDABOYEV,  
tarix fakulteti talabasi.  
Jahon va o'zbek adabiyoti  
namunalarining audio shaklini  
yaratish loyihasi uchun  
O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi  
stipendiyasi sovindori.

tartibidagi asosiy masalalar qatorida ko'rilmogda.

Institut rektori A. Xolbekov har bir fakultetda o'tkazilayotgan muloqotlarda ishtirok etmoqda.

"Ochiq muloqot"lar davom etayotgani sabab gazetamizning keyingi sonida kengroq to'xtalamiz.

TAHRIRIYAT.

# Asablar... G'azablar...

*mutolaa – uni davolar!*



*Bilim – xazina. U shunday boylikki, hech kim tortib ololmaydi, ishlataligan sari boyib boradi. Mutafakkirlar nazida kitob – eng yaxshi murabbiy, dono yo'boshchidir. Ayniqsa, kitobga oshnolik yosh avlodning chuqur bilimi, yuksak aql-zakovatli, barkamol shaxslar bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi.*

Bugun ko'pchilik kitob o'qish uchun vaqt sarflash noo'rin, deya hisoblashmoqda. Teatr, kino, gazeta-jurnallarni ham o'nini internet egalladi, deyishapti.

Shu masala yuzasidan yaqinda "Sotsiologiya" fani o'qituvchimiz Sanjar Mamatqulov tomonidan har bir talabaga mustaqil holda empirik tadqiqotlar o'tkazish haqida vazifa topshirildi. O'zimiz qiziqqan mavzuda tadqiqot o'tkazdik. "Siz kitob mutolaa qilishni yoqtirasizmi yoki internet vositalaridan foydalananishni?", degan savol bilan talabalarga

yuzlandik. Tadqiqot natijasiga ko'ra talabalarining 60%ni internet, 40% esa kitob mutolaaasini afzal deb bilishi.

Albatta, internetdan o'rni foydalansa, yaxshi. Biroq, kitobning o'rnini u, bizningcha, bosa olmaydi. Negaki, mutolaa asabni tinchlantiradi. Uyusqisizlikdan qutulishga yordam beradi. Miya faoliyatini yaxshilaydi. Kitob o'qish jarayonida inson miyadagi asab tolalarini soni oshib boradi. Xotirani mustahkamlaydi. So'z boyligini oshiradi. Insonlarning erkin fikrash qobiliyatini

yuksaltiradi.

Birgalikda kitob o'qish otanolar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtaida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi, deb hisoblashadi.

Ko'rib turanimizdek, mutolaaning foydali taraflari bize bilganimizdan-da ziyoda.

**Sevara UNGAROVA,  
musiqiy ta'lif yo'nalishi  
talabasi.**

## Mulohaza

### Quloqchinning quloqda qasdi bor(mi?)

musiqa tinglashda me'yorni buzayotganlar diqqatiga!

**Bugun telefonsiz hayotimizi tasavvur qilish qiyin. U eng yaqin yordamchimizga aylanib ulgurdi. Uzog'imizni yaqin qiladi.**

Albatta, telefon haqida gap ketganda uning "arzandachasi"ni ham eslab o'tmasak bo'limas. Bu – quloqchindir. Ko'chada quloqchin taqib yurgan ko'plab kishilarini uchratamiz. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Quloqchining ko'pgina foydali tomonlarini sanash mumkin. Masalan, til o'rganishda ular yaxshi yordamchi. Musiqa tinglash uchun ham juda qulay. Lekin, quloqchining ham zararli tomoni borligini bilasizmi?

Bu "mitti" buyunning nima zarari bo'lishi mumkin? Olimlarning isbotlashicha, quloqchilardan me'yordan ortiq foydalinish, noxush oqibatlarga sababchi bo'lar ekan. Birinchidan, quloqchilarni uzoq vaqt taqib yurish eshitish tizimiga saliby ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli shifokorlar quloqchinlardan 40 daqiqa, ko'pi bilan 1 soatgacha foydalishni maslahat berishadi. Ammo, hozirgi kunda ayrim yoshlar orasida quloqchin taqib uxlash yoki ish jarayonida ham taqib yurish "urf" ga aylangan. Bundan tashqari, quloqchin taqib, musiqa baland ovozda eshitib ketishlarini ham ko'p uchratamiz.

Ba'zida, musiqa tovushi atrofdagilarga ham eshitilib turadi. Albatta, bu bilan musiqa eshitish mumkin emas, demoqchi emasiz. Musiqa kishi ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Yaxshi musiqa kayfiyatini ko'taradi. Faqat, eshitishda me'yorni unutmasislik lozim.

Ikkinchidan, u e'tiborni buzadi. Tasavvur qiling. Ko'chada ketyapsiz. Qulog'ingizda "naushnik". Ajoyib musiqa. Albatta, baland ovozda. Yo'lni kesib



o'tishga to'g'ri kelib qoldi. Xo'sh, quloqchinni yeшиб, keyin yo'lni kesib o'tasizmi? Bizningcha, ko'pchilik uchun bu ortiqcha ovoragarchilik.

Baland musiqa ta'sirida inson tashqi muhitdan uzilib qoladi. E'tibor buliladi. Ba'zilar qayta-qayta signal chalinsa ham eshitishmaydi. Hattotki, tezlik bilan kelayotgan mashinani payqashmaydi. Qoidani buzishadi. Ko'pincha, haydovchilarning bo'latoladagi norozi bo'lishlarining guvohni bo'lamiz. Afsuski, hozirgi kunda yuz berayotgan avtohalokatlarning sababchilaridan biri, aynan, shu. Ommaviy axborot vositalarida ham bunday voqealar haqida tez-tez xabar berilmoqda.

Hayot — insonga berilgan eng oly ne'mat. Arizimagan loqaytdik tufayli o'z hayotimizni xatarga qo'yamaylik!

**Lobar ABDUKARIMOVA,  
bosholang'ich ta'lif va STI yo'nalishi,  
sirtqi bo'limi talabasi.**

## Moziya nigoh

Yevropani mazkur mahsulot bilan anchaga samarali ravishda ta'miladilar. Yevropaliklar madanilashqan xalqlar orasida qog'oz tayyorlashni eng kech o'zlashtirgan hisoblanadilar.

Bu san'atni arablardan o'rangan bиринчи Yevropa xalqi — ispanlar bo'lishdi. Qog'oz ishlab chiqarish 1154-yilda Italyada, 1228-yilda Germaniyada, so'ngira Angliyada ham o'zlashtirildi. Keyingi asrlarda qog'oz butun jahon bo'yicha keng tarqaldi.

Qog'ozning hayotimizda tutgan ahamiyati shunchalik muhimki, farang bibliograf mutaxassisasi A.Sim. biz yashayotgan davrni "Qog'oz erasi", deb atashlikni aytadi.

**Muhriddin USMONOV,  
tarix fakulteti talabasi.**



ko'tarib yurish uchun butun boshli arava darkor bo'lgan. Ikkinchidan, faqat xitoyliklarning uzoq davrlar mobaynidagi ipak va shoyi ishlab chiqarish sirlarini bilishgan.

Vaqt o'tishi bilan xitoyliklar qog'oz tayyorlashni san'at

**"Qog'oz erasi" dan tarixiga nazar**

*Qog'ozni xitoyliklar kashf etgan. Xitoy qadimdan kitobi sermushohada maf-kurasi, amaldorlardan doimiy hisobot talab etuvchi murakkab rasmiyatçilik tizimi bilan dong taratgan.*

Bitta bambuk taxtachaga o'ratcha 30 ta ieroglif siqqan. Tasavvur qiling, bitta o'ratcha hajmdagi kitob yozish uchun bunday taxtachadan qancha zarur bo'lgan ekan?

Bunday "Bambukli kitob"ni

darajasida o'zlashtirdilar. Asrlar davomida ular o'z odatlariiga ko'ra qog'oz tayyorlash texnologiyasini boshqa xalqlardan qattiq sir saqlashdi. Lekin, 751-yilda Tyan Shan tog'lari etagidagi arablar bilan to'qnashuvda bir nechta xitoylik qog'oz ustalarini asirga tushib qolishdi. Ulardan arablar qog'oz tayyorlash usullarini o'rganib oldilar va keyingi bir necha asr davomida

## Yaxshi niyat amali

*O'qishga juda qiziqardim. Bu chamasi uchinchili-to'rtinchisini fligimda paydo bo'lgandi. O'sha paytda opa va akalarim yaxshi o'qishib, olyi o'quv yurti talabalar bo'lishgani esimda.*



## 10 yil abuturientlikdan talabalikkacha...

Shu sababli, o'zim yashab keyin orzu va maqsadlarim so'na boshladim. O'qishga qiziqish asta-asta yo'qola bordi. Hayot tashvishlari deganidek, uy-ro'zg'or ishlari bilan bo'lib ketdim. Lekin, ko'nglimda "men baribir o'qishim kerak", degan niyat bor edi.

Oradan o'n yil o'tdi. Bu yillar men uchun asrларда teng yillar edi. Yana bir urinish va niyohat uzoq yillik tanaffusdan so'ng talaba bo'lish menga nasib qildi. Xuddi, menga Xudoning rahmi kelgandek bo'ldi. Ich-ichimdan xursand bo'ldim. Maqsadlarimga erishish yo'lida davom eta boshladim. Sabr qilsang, rohat ko'rasan, deganlaridek yaxshi niyat ila o'qimoqdaman.

**Olmos ISRAIROV,  
chet tillar fakulteti  
talabasi.**

*Ota-ona farzandin kamolini ko'rishni istaydi. To'y qilish orzusida bir umr yig'inadi. Aslida, bu odat yillar davomida gon-gonimizga singib ketgan.*



## "QIRQ KECHA-YU qirq kunduz to'y"

Insonlar o'rtaida bu tadbirlarga o'z-o'zini ko'z-ko'z qilish, qadriyatlarini mensimaslik kabi illatlar namoyon bo'lmoga. Hozirda "kelin", "kuyov" tanlashta ularning ko'rgan tarbiyasidan ko'ra, qiziqish "manfaatlarga" borib taqalmoqda.

Pul, boylik, mansabs, obro-e'tibor — bularning hammasiga inson o'z mehnati tufayli erishsha bo'ladi. Lekin baxt-chi? Shohona to'y baxtli hayotni kafolatlay oladimi?

To'y qilib, hammani qoyil qoldirmoqchi bo'lgan, mayli, qilaversin. Mana shu to'y uchun ketgan xarakatning chorak qismini kam ta'minlangan oilalarga, boquvchisini yo'qotganlarga bersa, ikki karra savob emasmi? Hozirgi vaziyatni kuzatsak, biz oila qurish uchun emas, balki, to'ya tayyorlanayotgandekni. Aslida esa, buning aksi bo'lishi kerak. Olilarda to'yarda qilinayotgan ortiqcha sarf-xarakatlarining oldi olinsa, ma'naviy barkamollikning o'sishi kuzatilib, bo'lar-bo'limsaga ajralishlar ancha kamayardi.

Dabdababozlikga barham berish, yoshlarga to'g'ri yo'l, ibrat ko'rsatish o'z qo'llimida. Shu haqiqatga amal qilish esa har bir insonning o'ziga bog'liq.

**Sarvinov SINDAROVA,  
maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabasi.**

## Online test

endi korrupsiyaga o'rin yo'q!

*Online test olinishidan ko'pchilik xursand bo'idi. Talabalar o'zining bilimi bilan imtiyonlarni topshirdi.*

Yangi tartibidan so'ng ba'zi bir o'qituvchilarining "qo'shimcha daromadlariga" boita urildi. Endi, "yig'im-terimlar" ular uchun havas.

Talabalar ham o'qimasa, dars qilmasa bo'imasligini o'rgan-

moqda.

O'qituvchilardan esa darslarni yaxshi o'tishni va ilmiy ishlash qilishni talab etmoqda.

Online test natijasida korrupsiyaga bosqichma-bosqich chek qo'yildi, deb o'ylayman.

**Suyunov O'RASBOY,  
mehnat ta'lifi yo'nalishi  
magistranti.**

**Talabalarga yo'l-yo'riq ko'ssatib, ayrim narsalarни o'zim yozib berishimni ko'pchilik yaxshi bilib qoldi. Shuning uchun bir kuni bir do'stim xonasiga taklif qilib, "Bir-ikkita yaxshi maqola yozib berasan. Meni uquvim yo'qroq", – dedi.**

Bizniki, shunchaki havas, katta gazetalarga maqola yozmaganman, desam ham una-madi. "Salgina ega kesimini kelishtirib, qog'oz qoralab bersang bo'ldi, u tarafini o'zim hal qilaman", deb turib oldi. Bahona topay desan bo'imas, qolaversa yaqin do'stim. Rozi bo'lib qo'ya qoldim.

Haqiqatdan ham men yozgan o'sha "maqolalar" bir hafizada ikkita gazetada, birozgina o'zgarishlar bilan chiqib keldi.

Ana shundan keyin fakultetda kimga maqola kerak bo'lsa, menga iltimos qildi. Albatta, shunchaki iltimos emas, "gonorar"i ham bor. Yozib beraveraman, ro'zg' orga harnada.

Maqola degani, aslida "konsept"ning o'zgini. Faqat, boshi va oxirda bitta-ikkita kuna, shunday emasmi? Barchasini gap yozilsa bo'di. Nima qiliy, ayrim talabalar shuni ham



bilmaydi-da.

Keyinchalik, boshqalar ham maqola yozdirgani keladigan bo'lismi. Aslida, ular bilan "dogovor"imizda hech kimga churq etmaslik bor edi. Ha mayli, nima bo'lganda ham kelishuvni buzganimcha yo'q. Axir, ularni ism-familialarini tilga olmadimi-kuna, shunday emasmi? Barchasini o'zlariga istagan mayzuda maqolalar yozib beraverdim.

Hozir butun oliyogohda meni yaxshi bilishadi. Bo'lajak s i t e p i e n t a l r a g a , ittifoqchilarga, xullas, menga ishi tushganlarning barchasi ga maqola yozib beryapman. Shu kecha-kunduzda xonadoshlarim bilan ishlayapman. Yoshlar ittifoqi "kontrakt" pulining bir qismini to'lab berishi uchun o'sha talabaving maqolasi gazetada chiq-

gan bo'lishi kerak ekan. Shunga qo'shimcha kuch ziar bo'lib goldi. Xonadoshlarim ham maqola yozadigan bo'lismiyapti.

Ha, darvoqe, hozir kitob yozishga kirishyapman. Birikki puldorlar (kimlar ekan) jiddiy sir ball to'plash uchun kitob yozishni niyat qilganini aytdi. Maylida, niyatlariga yetsin, deb yozib beryapman.

Agarda, siz ham maqola yoki kitob yozdirmoqchi bo'lsangiz bemalol aytavering, kelishamiz. Lekin, atiyib qo'yay, men yozgan maqolalarning chiqishiga yoki kitobning chop etilishiga kafolat bermayman, faqat yozib beraman. Manzilim, telefon raqamimni tahririyatda qoldirganman.

Maqolalar yozishdagi "uslubim" ko'pchilikka tanish bo'lgani uchun ushu maqolaga imzo qo'yamidi.

**Imzosiz xatni oqqa  
ko'chiruvchi:  
Javohir MASHRABOV,  
tarix fakulteti  
talabasi.**

## Ma'naviy bo'shliq

haqida bilasizmi?

*Yoshlarni chegara bilmas xavfga aylanib borayotgan "Ommaviy madaniyat"ning g'oyaviy va mafkuriy xurujlaridan saqlashda, avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish darkor. Ularni barkamol shaxs etib tarbiyalashda, eng avvalo, ularning ongida g'oyaviy bo'shliqqa yo'q yomasligimiz kerak.*

Ma'naviy bo'shliq — muayyan sharoitda jamiat, undagi toifa va qatlamlarning ongida ma'naviyatsizlik holati. Agar, ma'naviy bo'shliq paydo bo'lsa, so'zsiz uning o'rnni o'sha xalqning tabiatiga begona turli xil ma'naviy tazyiqlar egallab olishi va o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar.

Binobar, davlatimiz bosh islohotchi sifatida ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaydi. Ma'naviy hayotni butun xalq va har bir fuqaroning manfaatiqa mos keladigan yuksak va ma'naviy jozibali g'oyalari, insoniy qadriyatlari bilan to'ldirib boradi.

Mamlakatimizning yanada taraqqiy topib rivolanishida ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajoddorlarning ma'naviy merosiga hurmat tuyg'ularini uyg'otish darkor. Zero, tarixiy merosimiz asrab avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish har bir fuqaroning burchidir.

**Muzaffar SAYDAZIMOV,  
tarix fakulteti talabasi.**

oyog'igacha o'lichab, unga 2 metr yer yetishini "aniqlaydilar" va ko'madilar.

Tolstoy kichik bir hikoyada katta bi umuminsoniy dardni, to'g'rirog'i qusurni o'chib berdi. Yakuniy xulosa o'quchining o'ziga havola. Zero, bugun yon-atrofinizda Paxomlar ozimi?

Aynan shu o'rinda beixtiyor yodimizga Hazrat Navoiyning:

*Moldin umrim'a osoyish agar yetmas ne sud,  
Huh umrin hosil etsang,  
ganji Qurun qozg'anib, —  
degan misralari keladi. (Ma'nosi: mol-mulking sening oyosiyicha, halovatda hayot kechirishingga foyda bermasa, Nuh umrini yashagin-u, Qurun xazinasiga ega bo'lsang ham bekor).*

Kitoblarining soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi, deyishadi mutafakkirizmiz. Shu o'rinda mutolaadan kutiligan nitajiga erishish uchun faqat kitobning yaxshi bo'lismigina yetarli emas. Balki, kitobxon ham ochiq fikrl, mulohazali, tafakkuri, uyg'oq bo'lishi lozim. Asardagi so'z, obraz, manzara, holat har bir kitobxon ong-u shuurida aynan, ularning tafakkuri, bilimi, ruhyati olamiga yarasha ma'no-mohiyat kasb etadi.

"She'r yozgan bir karra, o'qib anglangan ikki karra shoir", deyishgan allomalar. Badiiy so'z quadratini to'g'ri anglash eng yaxshi yaratilqilar bag'ridagi ma'naviyat durdonalaridan bahramand bo'lish va "O'zidagi barcha yaxshi xislatlardan tindirma-yotgan nafs balosining ramzi sifatida ko'rsatadi.

Qo'iga kiritganiga qanoat qilmay, yanada serhosil yerlarga ega bo'lish maqsadida Boshqirdiston cho'llariga ketgan Paxom o'z ochko'zligining, xarisligining qurboni bo'ladi. Boshqirdilar yera cho'zila tushib yotgan Paxomining jasadini boshidan

**ADABIYOTGA E'TIBOR — MILLATGA, MILLAT MA'NAVİYATIGA, YOSH AVLOD KELAJAGIGA E'TIBORDIR!**

## Tafakkur qasriga ehtirom!

**Oolloh o'z yaratig'i — o'n sakkiz ming olamning sarvari etib insonni — hazrati Odam Atoni sayladi. Uning qovurg'asidan Momo Havoni yaratib, yer yuzida avlodlar davomiyligini ta'min etdi. Yaratganning karami keng, quadrati cheksiz. U o'z bandalarining a'moli va amali sarchashmalarining ko'zini ham ochib qo'yidiki, yaralgandan beri shu sarchashmalarga ehtiyoj sezadigan inson uch narsadan aslo bezor bo'imas ekan.**

**Bulardan birinchisi er uchun ayoli, ayol uchun eri. Ular hamma vaqt bir-birlarining mehr-u muhabbatlariga, parvarishlariga muhtojlar. Inson ko'ngliga urmaydigan ikkinchi narsa — bu har qanday shohona dasturxonning shoh ne'mati hisoblangan non. Ming bir taom va shirinliklar bilan tuzalgan dasturxonningiz nonsiz qanchalik g'arib va yarashiqsiz ko'rindari. Ulug' insonlar uchun uchinchi narsa — bu kitob. Muqaddas Qur'onning dastlabki oyati "Irqa", ya'ni o'qи da'vetida o'qimoq va uqmoqlikning bugun biz anglab olimgan necha bir sir-u sinoati bor.**

Globalashuv zamondiga ma'naviy qadriyatlarning hayotiy zaruriyati har qachongidan ham oshib bormoqda. Hazrati inson o'z insoniyligini shu rutba darajasiga yetkazib, uni saqlab qolgandagina, tinmayin odamiylik, komilik parvarishi bilan band bo'lgandagina, ko'pchilik uchun maqbul bir jamiyat qurish mumkin. Insoniylikning o'zagini esa ezgulik, mehr-shafqat tashkil etadi. Badiiy adabiyot hamisha ezgulik kuchisi, yaxshilik targ'i-botchisi. Badiiy adabiyot ma'naviyatdan tug'iladi va ma'naviyatni targ'i qiladi.

Insoniyat ko'p asrlik madaniy taraqqiyoti davomida yiqqan ma'naviy qadriyatlar adabiyotda,

ya'ni badiyi asarlarda jamlandi. Adabiyot mashhur bir ta'rifda "Insonshunoslik" deb baholanganida, uning insoniylik va ezzulkilika yo'g'rilgan ma'naviy bir soha ekanligi nazarda tutilgan. Ma'lumki, adabiyotda pastkashlik, sotqinlik, riyokorlik kabi quisurlar ham qalamaga olinadi. Lekin, u hamisha, adabiyotning yozilmagan qonuniga binoan, muallif nuqtayi nazarida qoralanadi. Muallif, ya'ni adabiyotning sub'ekti hamisha ezgulik tarafida bo'ladi.

"Hamma narsani o'qiyerish yaramaydi, dilda tug'oladigan savollarga javob bera uslidi qorolmali o'qish kerak", — deydi buyukuy rus yozuvchisi Lev Tolstoy.

U 1854-yilda fransuz adibi Mopassan asarlari yozgan so'zboshisida yozguvchining "Hayot" romanı haqida fikr yuritib, badiiy asarning uch mumiham belgisini alohida ta'kidlaydi: "Ushbu romanda bir-biriga teng ravishda badiiy asarning barcha uch sharti o'zaro birlashadi:

1. Muallifning tasvirlangan vogelikka nisbatan to'g'ri, ya'ni axloqiy munosabati;

2. Shakl go'zalligi;

3. Samimiylik, ya'ni muallif tasvirlaydigan hodisaga muhabbat.

Badiiy asarning mana shu uch shartidan kelib chiqqan holda L. Tolstoy Mopassanning "Hayot" romanida "Muallif butun vujudi

bilan ezzulkilka hamdard", deydi-yu, uning keyingi bir asari "Bel ami" "Azizim" romanini haqida juda keskin va qat'iy fikr bilidi: "Bel ami" — juda iflos kitob (ochiq grezna kniga).

Buyuk adib o'z fikrini so'zboshi davomida asoslaydi, roman bosh qahramoni Dyurura boyish va mansabga ko'tarilish yo'lida hech bir chirkinishdan qaytmaydi. Eng muhim, ushbu noxush hollar muallif tomonidan axloqiy-etik jihatdan baholanmaydi.

Tolstoyning fikricha, fransuz adib bosh qahramonning salbiy xatti-harakatlarini oddiy fikr bilidir yo'l bilan emas, balki, nozik badiiy usullar yordamida qoralashi va buni kitobxoniga yuqtirishi muhim edi. Ha, asl adabiyot, toza adabiyot buyuk mutafakkir Tolstoy ta'kidlaganidek, ezzulkilka hamdard bo'lishi kerak, o'z bag'rida rahmatafagi, odob-axloqini, hayo va andishani, haqiqat va adolatni, go'zalik va ozodalikni parvarish qilish, undirib-o'stirishi lozim.

Shu ma'noda idrokli kitobxon yillar, asrlar osha ham Navoiy, Mirzo Bobur, Shekspir, Tolstoy, Pushkin, Dostoyevskiy, Chekov asarlari mutolaasidan aslo zerikmaydi. Xeminguey, Remark, Sholoxov, Rasputin, A. Qodiriy, Cho'pon, Ch. Aytmatov, O.Yoqubov, P.Qodirov ijdodan huzurbash bahramandlik tuyadi.

Badiiyatning beqiyos namunalarini yaratgan bu mutafakkir qo'iga kiritganiga qanoat qilmay, yanada serhosil yerlarga ega bo'lish maqsadida Boshqirdiston cho'llariga ketgan Paxom o'z ochko'zligining, xarisligining qurboni bo'ladi. Boshqirdilar yera cho'zila tushib yotgan Paxomining jasadini boshidan

kirlar turli davrlarda, turli mammalatlarda yashab, ijod etdilar. Ularning tillari, diniy e'tiqodlari ham bosqha-boshqa. Ammo, ular asarlardagi odamlikka, e'tiqod bil xil. Hayo, adab, insof, andisha, adolat borasidagi qarashlar bilan bu ijodkorlar bir nuqtada tutashadilar. Go'yo,ular o'z ma'rifatlar, zaroftalar bilan bashariyat qalbini poklashga harakat qiladilar. L.Tolstoyning hayosizligi, ochko'zlik, nafs balosi oqibatlaridan bong uradigan "Insonga ko'p yer kerakmi?" hikoyasidan chiqariladigan xulosa ham, aslida, shu maq-sadga qaratilgan. Hikoya o'z nafsining itoatkor quliga aylangan Paxom fojiasi o'chib beriladi.

Paxomning bir ro'zg'orni tebratishga, to'kin yashashga yetadigan mol-mulki, yeri bor edi. Tinchgina hayoti davom etayotgan edi. Bir kuni uyiga mehmonga kelgan qaynopasi va ayoli o'rtaida kechqan qishloqcha va shaharcha yashash tarzi haqidagi bahnsi eshitib qoladi-yu, yuragiga g'ulg'ula tushadi. Endi u timisiz yerini, faqat yerini ko'paytirishni o'ylab qoladi. Tolstoyning mohirona qalam shunda ko'rindak, Paxom yuragiga tushgan shaytoniy vasvasani ayollar suhbatiga olib kelib bog'lasa, hikoyadagi jin obrazini Paxomni yer ko'paytirish dardida barcha uch shum ham tindirma-yotgan nafs balosining ramzi sifatida ko'rsatadi.

Qo'iga kiritganiga qanoat qilmay, yanada serhosil yerlarga ega bo'lish maqsadida Boshqirdiston cho'llariga ketgan Paxom o'z ochko'zligining, xarisligining qurboni bo'ladi. Boshqirdilar yera cho'zila tushib yotgan Paxomining jasadini boshidan

**Yulduz KARIMOVA,  
o'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasini, f.f.n.**

Iqtidorini vug'tida anglash yaxshi. Buning o'ziga yarasha mas'uliyati bor. Yaxshi ijodkor — yaxshi kitobxonidan yetishib chiqadi. Jizzax davlat pedagogika instituti akademik litseyida o'ziga xos ijodiy muhit yaratilgan. Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Shoira Qarshiboyeva hamda litsey xodimasi Noila Davlatovilar iqtidorlari o'quvchilar bilan yaqindan ishlab kelmoqda. E'tiboringizga o'quvchilarning she'riy mashqlarini havola etamiz.

**Munisona**

Tunni tongga ulab yashay olar kim? Minnat-u tamasizi kuyib-yonadir. Nega javob bermay turibsan sen, jim? Bu mushfiq volida, munis onadir. Quyosh sochmay qo'sya, zamin uzra nur, Sahroga aylanib qolar tabiat. Ona ham shams kabi bebablo bir dur, Zuhro gulduzidek sirlari bit xilqat.

Ehtimol, shuningchun Vatan so'ziga Qo'shib aytildi ona degan nom. Durni qadagandek uzuq ko'ziga, Yurakdan joy olgan shu so'z, shu maqom. **Zuhra NORBOYEVA.**

**Tong naftasi**

Esmoqdadir mayin shabboda, Kotaradi boshini quyosh. Kel, quyoshga peshvoz chiqaylik, Tongga shoshil, Tong aymoqda: «shosh!»

Shabadaga raqs tushar maysa, Iforlari dimoqqa yetar. Taraladi yalpiz hidrlari, Mast qushchalar, kuylaydi baytlar.

Boshlanadi va shundan hayot, Uy'gonadi borliq urib bong. Hayratlarga ko'mib dunyonni Yorishadi olam, otar tong. **Durdona XAYRULLAYEVA.**

**Yulduz**

Hayot yo'llari bu aslida so'qmoq, Men unda qoqildim, kecha-yu kunduz. Do'stlarim boshmaq ularlar to'qmoq, Lek, menin holimni so'radi yulduz.

Do'stingman, dedilar aladdi, biroq, Do'stlik nauniholi olmayin ildiz. Meni tashladilar ketdilar yiroq, Lek, menin holimni so'radi yulduz.

Men esa muhabbat bog'iga kirdim, Sevgimni ko'rmadi, bilmadi bit qiz. Mayli, dedim, mayli, uni kechirdim, O'shanda holimni so'radi yulduz.

**Diyor JABBOROV.**

**Chiroq o'chganda**

Dillar g'arnga cho'mib qoladi, Hamma jim-jit o'yg'a toladi. Atrof qop-qorong'u bol'dadi, Mahallada chiroq o'chganda.

Kim paypaslab shamni qidirar, Kim qoqilib, yerga yigilar, Uzoglarda itlar uvullar, Mahallada chiroq o'chganda. Telefonda "antenna" «o'lgan», Internetda "svyaz" yo'qolgan. «Zaryadka» ham juda kam qolgan, Mahallada chiroq o'chganda. Dilxumor **OLTINBEKOVA.**

**Tark etding...**

Bilmam ne tark etding meni, O'zing-la hayotim olding-u ketding. Mayliyi, qolsa ham xotiralarim, O'yalarim osmonin sen yakson etding.

Seni yuragimdan sevardim, jonim, Xasta bu joniimi tirmalab ketding. Kerak emas edi, bor xon-u monim, Sof, toza sevgimdan ayrolar etding.

«E, bore», deydigan o'yin emas-ku? Endi nima qilay, yurak yarim-da. Sharita yulib ketding, shu yarimtanai «Men seni sevaman», deb aytganimda. **Javohir NORQULOV.**

**Onajonim**

Mayli omad kelsa, quchog'in ochib, Porlasa baxt qushi har on boshimda, Quyosh ko'nda tursa, nurini sochib, Onajonim, siz doim bo'ling yonimda.

Qaro ko'zim ma'nosin topsa, Mehri tatigulik onam bag'rida. Ko'zimdan nam yoshlari yana qalqisa, Onajonim, har vaqt bo'ling yonimda. **Anora MAMATOVA.**

**Sahifamiz mehmoni litseyning yosh ijodkorlari****Bahor kelmoqda**

Olis vodiylardan dovonlar oshib, Hayqirib, jar solib, dengizday toshib, Pokiza qorlar ham tog'larga qo'chib, Ayojni unutib kelmoqda Bahor,

Go'zallikka burkab mohir qo'llari, Yashil rang olarkan bor yo'llari, Bog'lardagi o'sha orlik gullari, Oching, eshibi qoqib kelmoqda bahor,

Yerguzi hayratda, ko'rganicha lol, Porloqdir, yorug'lik unda yo'q g'ubor, Rom etib o'ziga bir sohibjamol, Tabiatni uyg'otib kelmoqda bahor!

Bizlar-ku mushtoqmiz, kutib intizor, Chamanlar rango-rang g'oyat maftunkor, Shodlikni madh etib takror va takror, Qaldirg'och qanotida kelmoqda bahor,

Mehnatga shaylangan ey, dehqonbobo, Yomg'irning ifori bunda musaffo Sayroqi ohanglar, bu dilkash navo Boychechaklar bilan kelmoqda bahor.

Dunyo yuzin ko'rdi lolaqizg'aldoq, Yellar ham chopadi sal o'yinqaroq, Quyoshning nurlari endi yaqinroq, Yaratib-yashnatib kelmoqda bahor.

Qishloqda osmonning bag'rida Varrak, totuvlik va baxt-sharqona sumalak, Dillarni-dillarga bog'lagan tilak, Navro'zni yetaklab kelmoqda bahor!

**Ilhom EGAMBERDIYEV.**

**Dylla**

Shahlo Ahrorova,  
«Ko'ngil» she'rinning  
rus tilliga tarjimasi.

На небе звёзды гаснут,  
Ночь блещится к концу.  
Вон за теми горами,  
Снит беспокойная душа.

Целыми днями не вспоминал,  
И даже не приснился.  
Соглашаясь душа родная,  
Не отдалим ему тебя.

Полюбив каменное сердце,  
Не заставишь его полюбить.  
Обжигая нащу грудь,  
Не упрямся душа моя.

В утре нас не любящее,  
Все равно не сможем уйти.  
Междудунари горы,  
Все равно не сможем пройти.

Душа моя не проклиной меня,  
Страсть и нас преодолела.  
Ах как быть, эта гора,  
Если рухнула б сама,

Молча прошли через огни,  
Чтобы вновь не пройти.  
Соглашаясь душа родная,  
Не отдалим ему тебя.

**Беззод ЭШМИРОДОВ.**

**Surat**

Bilmam, nelar deysan, xayolan menga, Har on boqqanimda o'sha suratga. Ko'zlarining malusdan xayolga chomgan, Go'yo, tolib turar otashin dardga.

Bilmam, nelar istab boqib turibsan, Ko'ngling ham oloudan yonib ketmoqda. Ehtimol, ko'moqlik istaysan meni, Shundanmi? Yuraging nola etmoqda.

Bildim! Qalbingdag'i jo'sh urg'an hislar. Xayolan muhabbat dardidan so'zlar. Lek, nima bolsa ham boqmoq istaydi, O'sha suratingga tikilgan ko'zlar!

**Oysanam TOSHTEMIROVA.**

<b>MUASSIS:</b> <b>Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti</b>	<b>Bosh muharrir: Abdurakim SHARIPOV</b> <b>Mas'ul muharrir: Abdug'affor ABDURAHMONOV</b>	<b>MANZIL:</b> Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi 4-uy. Jizzax davlat pedagogika instituti bosh binosi, 2-qavat.	<b>Gazeta «Жиззах-принт» bosmoxonasida ofset uslubida chop etildi: Adadi: 2500. Buyurtma №_____.</b>	<b>Bosmaxona manzili:</b> Jizzax shahri, Sayilijoy ko'chasi, 4-uy.
<b>Tahririyatga kelgan xatlar doimiy diqqat-e'tiborimizda bo'lgani sababli mualliflarga qaytarilmaydi.</b> Gazetadan ko'chirib bosish faqat tahririyat yozma ruxsati bilan amalga oshiriladi.		<b>Jizzax viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2006-yil 26-dekabrda 06-017 raqami bilan ro'yxatga olingan.</b> <b>Oqiga bir marta chop etildi.</b> Bahozi erkin narxda		
<b>Navbatchi muharrir: L. ABDUKARIMOVA</b>				
<b>Bosishga topshirildi : 25.02.2019 -11:00</b>				